Qotil Malika

2-fasl  Muallif:@Rameo_11;

Odamlar ikki turli bo’lishadi.Yaxshi va yomon odamlar.BUnday gapni ko’p marotaba eshitganmiz albatta.Yoshligimizda uxlashimizdan oldin onamiz ertak aytib berganida doimo shunday gaplarni eshitardik.O’sha payt biz o’zimizga o’zimiz aytamiz,men xech qachon yomon odam bo’lmayman.Ammo,men bazan o’ylab qolaman,tarixdagi yoki ertakdagi yovuzlar xam men kelajakda yovuz bo’laman deb tug’ilishganmikan,yoki yo’q.Meni ismim Keyt,odamlar meni Keyt Miller deb chaqirishadi.Meni ko’rganingizda odam deb o’ylashingiz mumkin.Ammo men o’zim aslida kimligimni

bilmayman.Odammi,vampirmi,iblismi.Mening oilam g'aroyib.Otam afsonaviy qora ritsar Sparda,onam esa vampirlar qirolligi qirolichasi.Yana meni opam degan bir qiz bor.Ismi Sara,Sara Miller,singlim xam bor Mira.Meni endi bir savol qiziqtirib qoldi

-Men kimman o'zi?-shu savolga javob topmoqchiman.Erta tong,yotog'imda uyg'ondim.Bo'lib o'tgan barchasini eslashga xarakat qilib ko'rdim.Ammo xozircha o'sha kuni ko'ringan voqealardan boshqasini eslay olmadim.Meni tarixim xaqida bilasizlar,men yollanma qotil edim.Tunlari uxlay olmayman.O'ldirgan odamlarim tushlarimga kirib chiqadi.Qo'llarim qonga bo'yalgan.

Iblislar olami

Xamma yoqni qo’lansa xid qoplagan,atrof to’la maxluqlar.Ularning markazida esa bir ulkan iblis,kattakon tosh kursida o’tirardi.Bo’yi 4 metr bo’lgan,tanasini lava qoplab turgan bu iblis o’sha xamma tanigan Eyznxaym,yani Mundo edi.U taxtida o’ylanib o’tirardi.Shu pay tuning oldiga xizmatchilaridan biri kelib tiz cho’kdi.

-Qirolim,murojat etishga ruxsat bering-dedi rasmiyatchilikni qo’ldan boy bermay

-Ruxsat-dedi Mundo ensasini qotirib

-Menga yetib kelgan malumotlarga ko’ra-deb tiz cho’kib gapira boshladi-Ikki olamda sizning eski dushmaningiz Qora burgurni ko’rishgan-deyishi bilan

Mundoni kimdir boshiga gurzi bilan urgandek bo'ldi

-Qora burgut-deb jaxli chiqib ketganini bildirish uchun qo'lidagi qadaxni sindirib tashladi-Qolganlari,Qizil Lochin va Sharpa,ular xaqida malumot qanday?-deb taxtidan turib,xizmatchini yoqasidan oldi.Xizmatchini deyarli ichidan o'tib ketgandi.Mundo ko'zlarini xizmatkorning ko'zlariga tikib turardi.

-Ularni xam ko'rishgan-deyishi bilan xizmatkorni otib yuborishiga oz qoldi.

-Ularni yo'q qiladigan vaqt keldi-deb borib taxtiga o'tirdi-Birinchi navbatda esa ular o'z qilichlari uchun kelishadi-deb ulardan sal uzoqroqda bo'lgan toshga qadalgan 3 qilichga razm soldi.

Vampirlar olamida

-Qachon jo’naymiz?-dedi Keyt barcha narsasini shay xolatga keltirib

-Menimcha bugun-deb Aleks unga shunday tikildiki,Keyt bundan xijolat bo’lib nigoxini olib qochdi.

-Unda ketdik,Kolin bilan Sarani shoshirish kerak-deb Aleksning nigoxiga bardosh bera olmay,qochishni maqul ko’rdi.Ular kirib borishganda esa manzarani ko’rib xayron qolishdi.Kolin va Sara barcha narsalarni tayyorlab bo’lishgandi

-Odatda kimdir bunday paytda yettinchi tushini ko’rayotgan bo’lardi-dedi Aleks kulib

-Kimdir esa meni uyg'otmoqchi bo'lardi-dedi Kolin unga etibor bermay

-xo'sh ketamizmi?-deb Mira xam sumkasini ko'tarib chiqib keldi

-Senga nima bor?-dedi Sara uni tayyorligini ko'rib-U yerlar xavfli bo'lishi mumkin.Yaxshi sen…-deyishi bilan Key tuning gapini bo'lib qo'ydi.

-Mayli-deb xammani xayron qoldirdi-Tez o'rganish uchun xammasini o'z ko'zi bilan ko'rishi kerak-deb uni oldiga borib yelkalariga qo'lini qo'ydi-Biz bilan borasan-deb unga kulib qo'ydi.Mira buni kutmagani uchun uni quchoqlab oldi.Ular taxt xonasiga kirib borishdi.Edmund va Anna ularni kutib turishgandi.Ularning yonida esa eski yopinchiqqa o'ranib olgan bir qariya xam turardi.

-Xo’sh nima qilishimiz kerak-dedi Keyt qariyaga ko’z yugurtirib

-Ishonching komilmi?-dedi unga to’yib tikilib olgan Anna

-Oyi-deb Keyt uni bag’riga bosdi-Men albatta qaytaman-dedi uni bag’ridan bo’shatib yubormay.Qariya ularga idishda suyuqliklar berdi.

-Buni ichsangiz o’z olamingizga tushib qolasizlar-deb nimalar bo’lishini tushuntirdi.

-BU yerga qaytish uchun nima qilamiz-dedi Sara ularning faqat bittaligini ko’rib

-Keyt xonimning iblis qilichi bu olamga yo’l ocha oladi-deb qariya g’oyib bo’lib qoldi

-Ajoyib qariya ekan-dedi Key tuning g’oyib bo’lganiga tan berib.

-Omad tilayman-dedi Edmund taxtidan tushib.Keyt xammaga birma-bir qarab chiqdi va idishchani og'zini ochib bir ko'tarishda ichib yubordi.Shu payt o'zini g'alati xis qila boshladi.Atrofda kuchli shamol turdi.Ko'z oldini qorong'ulik qoplab oldi.U ko'zini ochgani esa tor ko'chada yotardi.

-Biz qayerdamiz?-deb Sara boshini ushlab o'rnidan turdi

-Menimcha oshqozonim bilan o'pkamni o'rni almashib qoldi-deb Kolin qornini ushlab turardi.Keytni boshida kuchli og'riq turgandi.Aleksda esa xuddi Kolinnikidek vaziyat,Mirada xam kuchli bosh og'riq.

-Menimcha Bruklindamiz-dedi Keyt atrofga nazar solib-Chunki bu minorani men Bruklinda deb eshitganman-deb

qarshisidagi “Black Corporation” deb yozilgan binoga ishora qilib.

-Anna Danteni Londonda deb aytgandimi?-dedi Aleks qaddini rostlab

-Demak Londonga qarab yo’l olish kerak-dedi Sara Keytni yoniga turib

-Sizlarni olam ajoyib ekan-dedi Mira xayratini yashira olmay.Uni osmon o’par binolar va mashinalar xayratga solgandi

-Xali ko’p g’aroyibotlarga duch kelasan-deb kulib qo’ydi Keyt-Lekin men oldin bu yerda bir ishni yakunlashim kerak,buni esa masofadan qilaman-deb ko’chaga chiqib yurib ketdi

-Keyt unday qilma,uni qonun izmiga topshir-deb Sara uni qaytarishga urinardi.

-Sen u o’tirgan stol atrofidagi odamlar kim ekanligini bilmaysan-deb Keyt unga tushuntirishga kirishdi-Qonun ularga ishlaydi,sizlarga emas-deb taksi to’xtatdi va qolganlar xam chiqishgach manzilni aytdi.Keyt kelajakni o’ylab ko’pgina joylarga yashirin makonlar qurib tashlagandi.Xuddi chumoli uyasidek ko’p,u yerda esa soxta pasportlar va qurollar bo’lardi.Pullar xam albatta.Ichkariga kirib Keyt qurollarini ko’zdan kechira boshladi.Keyin esa xammaga passport tayyorlab bo’lgach,doimgidek xakkerlik yo’li bilan Benning kompyuteriga buzib kirdi.U xozir ofisida ekan.Keyt uni masofadan gumdon qilishni rejalashtirdi va buni olomon ko’z o’ngida qilishga qaror qildi.buning uchun esa yaxshi vaziyat

topildi.Bugun Ben olomon ko’z o’ngida intervyu berar ekan.

-Menimcha bugunning o’zida Londonga jo’nab ketamiz-dedi Keyt o’rnidan turib.To’g’ri qurollar saqlanadigan xonasiga borib,u yerdan snayperlarni ko’zdan kechira boshladi.Lekin negadir snayperdan otgisi kelmadi.Ko’zi qurollar ortida turgan kamonga tushdi.Uni olib barcha joyini ko’zdan kechirdi.Yigitlar esa xozir dam olish bilan band edi.

-Men ketayapman-dedi Keyt Sarani ogoxlantirib-Kolin uyg’ongunigacha qaytib kelaman.Keyin esa ketamiz.

-Keyt o’ylab ko’r,to’xatishing mumkin-dedi uni qaytarishga urinib

-Meni ichimdan nima o’tayotganini bilmaysa-deb Keyt tashqariga chiqib

ketdi.Garajda mototsiklni olib yo'lga chiqdi.Bennning ofisi qarshisida ulkan binolar ko'p bo'lganligi sabab,Keyt o'zi uchun qulay bo'lganini tanlab oldi va qanday qochishni xam o'ylab qo'ydi.Xammasi shay xolatda,ammo bir muammo bor.Uning qarshisidagi binoda ikki snayper turardi.

-Ishni bitirib tezda bu yerdan qochish kerak menimcha-deb Keyt kamonini tayyorlay boshladi.Kutganidek Ben tashqariga chiqdi.Nutq so'zlay boshladi

-Xonimlar va Janoblar-deb xammaga kulib qo'ydi-Sizlarni ko'rib turganimdan xursandman…-deyishi bilan Keyt otmoqchi bo'lganida uning ortidan yashirincha kelgan Sara uni turtib qo'ydi.Ammo Keyt o'qni qo'yib

yubormay,Sarani boshiga kamoni bilan urib uni xushsizlantirdi.

-Meni kechir Sara-deb Keyt yana nishonga oldi

-Men mamnuniyat bilan shahar hokimligiga nomzodimni qo'ymoqchiligimni elon qilaman-deganida Keyt kamon ipini qattiq tortib qo'yib yubordi.O'q uchib borib Benning boshiga tegdi.Shu payt Sara uyg'onib qoldi

-Nega meni ortimdan kelding-dedi Keyt unga g'alati nigox tashlab

-Demak men ulgura olmadim-dedi Sara yerni mushtlab,o'rnidan turarkan-Ortingda-deb Keytni itarib yubordi.Shu payt Sarani qornidan o'q teshib o'tdi.Keyt xar extimolga qarshi olib olgan

tumanli bo'mbalarini portlatib yubordi.Keyin esa Sarani olib bu yerdan qochib qoldi.

-Menimcha men o'laman-dedi Sara yarasini ushlab

-Menda bundanda battari bo'lgan-dedi Keyt uni arqonga bog'larkan-Chidan tur-deb uni arqon bilan yerga tushirdi.Keyin esa o'zi xam tushdi.Ko'chadagi mashinalardan birining oynasini sindirib eshigini ochdi va Sarani orqa o'rindiqqa joyladi.Keyt mashinani uchirib borardi.

-Keyt-deb Sara uni chaqira boshladi

-Sara chida,biz deyarli yetib keldik-dedi Keyt yo'ldan ko'z uzmay

-Keyt-deb Sara uning yoniga o'tib oldi

-Sara nima qilayapsan?-dedi Keyt uning qanday qilib xarakat qilayotganiga xayron bo'lib

-Og'riqni xis qilmayapman-dedi bir nuqtaga tikilib

-Nima?-dedi Keyt unin gaplariga quloq solib

-Men negadir og'riqni xis qilmayapman-dedi o'sha nuqtadan ko'zini uzmay-senda xam bo'lganmi,jaroxat og'iryapti,ammo og'riqni xis qilmaysan.

-Menda bir taxmin bor-dedi mashinani tezlatib-Balki to'g'ridir,balki yo'q.

-Qanday,aytaver bir eshitib ko'raychi-dedi o'zini mashina o'rindig'iga tashlab

-Menimcha sen xam xuddi menga o'xshagan iblislardan birisan-deyishi bilan Sarani ko'zlari ko'z kosasidan chiqib

ketay dedi.U shuncha paytdan beri o'zini inson deb bilardi.Endi esa u xam maxluqlardan biri ekanligiga ishona olmasdi.Saraning ko'zlaridan yosh chiqa boshladi.Buni ko'rgan Keyt esa uni ovuta boshladi.

-Bu meni taxminim xolos-dedi Keyt uni ovutish uchun-Balki o'q shunchaki yalab o'tgandir.

-Bunday bo'lishi mumkin emas-deb yig'lab yubordi Sara-naxotki…-deb gapira olmadi.Bu paytda esa ular uyga yetib kelishgandi.Keyt mashinani to'xtatib Sarani quchoqlab oldi.SHu xolatda ular 5 daqiqa turishdi.Saraning ichki kechinmalarini Keytdan boshqa xech kim tushunmasdi.Chunki Keyt boshidan o'tkazganlarni xozir Sara boshidan o'tkazayotgandi.5 daqiqadan so'ng ular

mashinadan tushib uyga kirishdi.Tabiiyki qon isini sezgan Aleks tezda chiqib keldi.

-NIma bo'ldi?-dedi qizlarni ko'rishi bilan-Sara senga nima bo'ldi-deb uning qon ko'ylagiga qarab qoldi.

-Xech narsa bo'lmadi-deb Keyt Aleksni ichkariga olib kirib ketdi.Ularning ketidan Kolin chiqib keldi.Saraning axvolini ko'rib u xam xammadan ko'ra ko'proq tashvishlandi.

-Sara-deb kelib uni xamma joyini ko'zdan kechira boshladi-Axvoling joyidami,qonni qayerdan orttirding?-deb uni savolga tuta boshladi.

-Kolin-deb uning ortidagi uydan Aleks chiqib keldi-Kel gaplashib olamiz,qizlar sizlar kiyimlaringizni almashtirib olinglar-deb qizlarga gapirib o'zi Kolin bilan

ko’chaning narigi betiga o’tib ketdi.Ular ichkariga kirishdi.Mira xam Saraga nima bo’lganini deyarli bilardi.Aleks gapirayotganda eshitgani aniq.Chunki Sara kirib kelayotganda unga achinish nigoxlari bilan qarab turardi.Sara yuvinish xonasiga kirib kiyimlarini almashtirdi va dush xam qabul qilib oldi.Unga bo’lib o’tgan barcha voqealarni xazm qilishi uchun vaqt kerak edi.U tayyor bo’lib tashqariga chiqqanida esa Keyt va qolganlar narsalarni tayyorlab bo’lishgandi.Keyt vaqt topib Saraning xam narsalarini tayyor qilib qo’ygandi.Ular aeroportgacha jim ketishdi.Sara Kolinning quchog’idan chiqmadi.Aleks esa ulardan xavotirda edi.8 soatlik parvozdan so’ng ular qo’nishdi.Ko’xna shaxar,yomg’irlar

o’lkasi London ularni yomg’ir bilan kutib oldi.Kolin va ALeks uchun sovuq unchalik bilinmadi.Ammo qolganlar uchun sovuq xavoga ko’nikish sal qiyinroq bo’ldi.Ular birinchi navbatda mehmonxonaga joylashib olishdi.keyin esa shahar aylangani chiqishdi.Keyt yo’lda ularga London xaqida o’zi bilgan narsalarni aytib ketardi.Ular Londonning ko’zga ko’ringan joylariga borishdi.Ammo Keyt va Sara bezovta bo’laverishdi.Ularni kimdir kuzatardi.Buni ular xis qilishardi.Ammo ortlariga qaraganlarida esa u g’oyib bo’lardi.Ular bir kichik restoranga kirishdi.Barga o’tirisharkan,ularning oldiga Yoshi 55 larda bo’lgan bir katta kishi keldi.Egnida oshxona fartuki va boshida oshpaz bosh kiyimi bor edi.

-Kelinglar mexmonlar-dedi oshpaz kulib-XO'sh nima buyurtma qilasizlar?-deb xushmuomalalik bilan so'radi.

-Xo'sh o'zingiz amerikalik mexmonlaringiz uchun nimani tavsiya qila olasiz?-deb Keyt xam kulib muloyimlik bilan javob qaytardi

-Yaxshi-deb oshpaz kulib qo'yib,qo'liga menyuni oldi-Bizda bir qancha salqin ichimliklar,shu bilan birga desertga ajoyib shirinliklar xam bor-deyishi bilan Keyt bir malumotni eslab qoldi

-Siz Ser Jeyms Daunimisiz?-deb savol berdi.Bu kutulmagan savoldan esa oshpazni gangib qoldi

-Umuman olganda xa-dedi qaddini rostlab-Meni qayerdan bilasiz?

-Sizni jurnalda va bir ko'rsatuvda ko'rgandim-dedi eslashga urinib-Xalqaro festivalda qulupnayli muzqaymog'ingiz bilan yutgansiz-deyishi bilan oshpaz kulib yubordi.

-Afsonaviy muzqaymoqmi?-dedi Sara xam tilga kirib

-Sizlarni etiborli ekanligingiz meni lol qoldirdi-dedi Ser Jeyms ularga tan berib-Xo'sh o'sha muzqaymoqdanmi?

-Albatta-deb ikkisi birdaniga javob berishdi.Muzqaymoqni barcha tatib ko'rdi.Ularga albatta muzqaymoq juda yoqdi.

-BUnday ajoyib muzqaymoqni umrimda yemaganman-deb Mira xam uni maqtab qo'ydi.Keyin esa ular u yerdan chiqishib Bigben minorasiga borishdi.U yerni

balandligini ko’rgan Aleks unga chiqishni xoxlab qoldi.Qolganlar xam unga ergashishdi.Ular kattakon soat mexanizmi ichida yurisharkan,Kolin va Aleks unga tan berishdi.Kech tushguniga qadar ular shahar aylanishdi.Saraning xam kayfiyati ko’tarildi.Ammo ularning ortidan kelayotgan sharpani ular xech ushlab qolisha olishmadi.Kechqurun ular mexmonxonalariga qaytib kelishdi.Bugun shaharda Guy Fox kuni ekan.SHuning uchun butun Britaniya bu kunni bayram sifatida nishonlaydi.Ular bayram bo’ladigan markaziy xiyobonga ketayotganlarida xam ularning ortidan o’sha sharpa kuzatib bordi.Ular uning yuzini ko’ra olishmadi.Ammo yelkasiga osib olgan katta gitara qutisini ko’rishdi.Qizlar buni yigitlarga aytishga

shoshilishmadi.Guy Fox kuni,bu kuni odamlar yog'ochdan yasalgan Guy Fox ni yoqib yuborishadi.Tarixda shunday ismli yigit qirolning xayotiga suiqasd qilmoqchi bo'lgan.Ammo u murodiga yeta olmagan.O'sha kundan boshlab odamlar bu bayramni nishonlaydigan bo'lishgan.Maydon markazidagi ulkan qo'g'irchoq yoqilgan maxal barcha qichqirib yubordi.Ularga bizning qaxramonlar xam jo'r bo'lishdi.Ammo Keyt va Saraning ko'ngliga bayram sig'masdi.Ular ich-ichlaridan ularni o'sha sharpa kuzatib turganini sezishardi.Qaytayotganlarida xam kimsasiz ko'chadan yurishdi.Ammo ularning ortidan bus afar sharpa emas bir gala odamlar tushishdi.Ularning soni o'rtacha 10 ta edi.Ko'chalar kesishadigan

chorraxaga yetishganida esa ularni atrofdan o'rab olishdi.Aleks va Kolin oldinga chiqib qizlarni ximoya qilishga tushdilar.

-NIma xoxlaysizlar?-dedi Aleks qo'lida olov yoqib

-SHunchaki sizlarning qoningizni ichib kuchli bo'lmoqchimiz?-deb ulardan biri tashlanmoqchi bo'lganida,kimningdir qichqirgan tovushi eshitildi.

-Odamzot va onggi bor barcha mavjudotlar doimo kuchli bo'lishga intilishadi-degan Keytga tanish ovoz kela boshladi-Ammo ular bilishmaydiki,kuch bu ularning o'zi ekanligini-deb notanish sharpa ularni birin ketin qilichidan o'tkaza boshladi.U yoruqroq joyga chiqqanida barcha uning yuzini ko'rishga ulgurishdi.O'z o'lchamidan bir muncha

katta yapon katanasini ushlab olgan,kelishgan,chiroyli va baquvvat yigit.Sochlari xuddi Keytnikidek oppoq rangda,ko’zlari esa kulrang edi.Ko’k plash kiyib olgan,zamonaviy oyoq kiyimlarda edi.Keytga u kimnidir eslatib yuborardi.Kimdir unga to’pponchadan o’q uzdi.Ammo uning o’qi nishonga tegmadi.U esa shunchaki unga qarab turib oldi va qilichini silkitganida undan shamol chiqdi.Shamol boyagi zo’ravonni uchirib ketdi.Uning ortidan yana boshqasi pichoq suqmoqchi bo’lgani esa u egilib qolib,bu safar qilichini qattiqroq silkitdi.Uning qilichidan chiqqan shamol qotilning tanasini bo’laklarga bo’lib yubordi.

-Seni ancha paytdan beri qidirib yurgandim-deb boyagi Aleksga javob

qaytargan odamni ko'rinishi o'zgara boshladi.Endi uning ko'rinishi umuman boshqacha edi.

-Sen xojamizga xiyonat qilding-deb u xujumga o'tdi-U senga kuch ato etgandi,sen esa uni oyoq osti qilding-deb baqirib unga zarba berardi.Ammo uning zarbalar "U"nga umuman tasir etmasdi."U" zarbaga chap berib maxluqning ko'ksiga qilichini suqib oldi.

-Men o'zimga xiyonat qildim-dedi qilichni aylantirib-o'sha xojangga mendan salom aytib qo'y-deb qilichini shunday aylantirgandi,maxluqning tanasi g'oyib bo'ldi.U qilichini qiniga soldi va gitara g'ilofiga solib qo'ydi.Keyin esa to'g'ri Keytni ustiga bostirib kela boshladi.Aleks uning salobatidan deyarli qimirlay xam olmadi.U asta kelib Keytga

nazar soldi.Keyt xam unga nazar soldi.Uning sochlari chiroyli qilib olingan va ortga qarata taralgandi.Uning qoshlari xam oq rangda edi.

-Seni bu yerda ko’raman deb o’ylamagandim-dedi u Keytdan ko’z uzmay.

-K…Kimsan?-dedi Keyt o’zini qo’lga olib

-Meni tanimayapsanmi?-dedi u xuddi jinniga qaragandek qarab-BU men seni ukangman?-deyishi bilan Keytni boshida o’tkir og’riq turdi.Xuddi Anna bilan bo’lgan safardagidek yana voqealar ko’rina boshladi.Kino tasmasidek xamma narsa aylana boshladi.Keyt qandaydir tepalikda kim bilandir yelkama-yelka turib jang qilardi.Qo’lida qora katta qilich.U sherigining qo’lidagi qilichidan uning kimligini bilib oldi.Bu o’sha ularni

qutqargan notanish edi.Ular jangni yakunlab bo'lishgach ikkisi xam o'tirib olishdi.

-Kelasan deb o'ylamagandim-dedi u keytga qarab

-Yigitcha bunday ishkallarga oxirgi paytda ko'p o'ralashib qolyapsan-dedi Keyt xuddi yaqini bilan gaplashgandek-Tushunaman,yigitchilikda bo'lib turadi.

-Ammo baribir kelding-dedi miyig'ida kulib-Shunga xam raxmat

-Axir sening opangman-dedi Keyt o'rnidan turib-NIma bo'lganda xam baribir siz ikkingiz uchun xammasiga tayyorman-deb unga qo'lini cho'zdi-Kettik yigitcha

-Xech bo’lmasa bir marta ismim bilan chaqir-dedi uning qo’lidan ushlab o’rnidan turarkan.

-Qachonki meni yengsang,seni yigitcha deb chaqirishni tashlayman-deb uning ko’zlariga tikildi-Vergiliy

SHu payt Keyt o’rnidan sakrab turib ketdi.Keyin esa o’ziga qaradi.Xech qayeri jaroxatlanmagan,aksincha terlab ketgandi.Birozdan keyin ichkariga o’sha notanish va Aleks kirib keldi.

-Keyt biz u bilan…-deyishi bilan Keyt uning gapini bo’lib qo’ydi.

-Aytchi qancha payt ko’rinmadim?-dedi notanishga qarab

-Senliginga qanday ishonaman?-dedi shubxa ko’zlari bilan qarab

-Men esa seni o’sha men bilgan yigitcha ekanligiga qanday ishonaman-deb xuddi o’zi gapirgandek javob berdi.Yigitni ko’zlari katta-katta bo’lib ketdi.

-Key-dedi xuddi endi ko’rishayotgandek

-Vergiliy-deb kulib qo’ydi.

-Meni ismim bilan chaqirishingni qancha kutgandim-dedi kulib

-To’xtanglar-dedi Aleks jarayonga aralashib-Demak xozir biz qidirayotgan o’sha odam-deb odam so’ziga urg’u berdi-Shumi?-deb Vergiliyga ishora qildi.

-Xa-deb Keyt bosh silkitib qo’ydi.Ular pastga tushishdi.Barcha jam edi.Xamma stol atrofiga yig’ilgach Vergiliy qulupnayli muzqaymog’idan tanovvull qilib gapira boshladi.

-Men Spardani,otamizni-deb Keytga qarab oldi-Farzandlari 2 ta deb yurardim.Seni borligingni esa 19 yoshligimda bilganman.Dante qachon bilgan bilmayman.

-Meni qanday qabul qilgansizlar,boshlanishida-dedi Keyt eslashga urinib

-To'g'risi boshida ishonmaganman-dedi Vergiliy jiddiylikni yo'qotmay-Ammo,men ko'p gapirishni yoqtirmayman-dedi o'rnidan turib-Dam olinglar,ertaga Danteni oldiga boramiz.

-Sen qayoqqa?-dedi Aleks xam o'rnidan turib

-Tun xali uzoq davom etadi-dedi qo'liga gitara g'ilofini olib-Shunday ekan,iblislar xali yana kelishadi,nima men bilan birga

borishni xoxlaysanmi?-dedi eshik oldida turib.

-Jon deb borardim-dedi Aleks bir qadam oldinga chiqib-Ammo ularni yolg'iz qoldirib ketgim yo'q-dedi qizlarga ishora qilib-Yana meni qo'rqoq deb o'ylama.

-Xammani ximoya qilish uchun ko'p kuch kerak-dedi bir nuqtaga tikilib-juda xam ko'p kuch-dedi nigohlarini Aleksga qadab.Shu payt Keytning boshida sanchish paydo bo'ldi.Boshini ushlab yiqilishiga oz qoldi.kutilmaganda Sara suyab qolmaganda yiqilgan bo'lardi.KO'ziga yana voqealar ko'rina boshladi.Bar stulida,Vergiliy bilan birga o'tiribdi.Ammo Vergiliyning ko'rinishi yoshroqdek.

-Yigitcha-dedi Keyt pivodan xo’plab-Sen bunday maxluqlar bilan olishishga yoshlik qilmaysanmi?-dedi unga qarab

-Mening ismim Vergiliy-dedi yosh bolalardek.Keyt esa kulib uning sochlarini kafti bilan silab buzib yubordi.

-Yaxshi,yigitcha-dedi Keyt yana pivosidan xo’plab.

-KO’p kuch kerak-dedi Vegiliy bir nuqtaga qarab-O’zimni va boshqalarni ximoya qilishim uchun juda xam ko’p kuch kerak-deyishi bilan Keyt uni yaxshilab turtib qo’ydi.

-Boshqa bunday gapirma-dedi bo’shab qolgan qadaxni yana to’ldirib-Kuch ongli mavjudotlarni barini aqldan ozdiradi.

-Ammo men boshqara olaman-dedi Vergiliy qarshilik bildirib

-Mundo xam shunday degandi-deyishi bilan Vergiliy xayratdan qotib qoldi-Odamzot va onggi bor barcha mavjudotlar doimo kuchli bo'lishga intilishadi.Ammo ular bilishmaydiki,kuch bu ularning o'zi ekanligini-deb qadaxni bir ko'tarishda bo'shatdi.Shu voqealarning bari 1 soniyada bo'lib o'tgandek bo'ldi.Keyt bir soniyada,1 soatlik voqeani ko'rgandek bo'ldi

-Men senga aytganman-dedi kulib-Bu gapni boshqa qaytarma deb-dedi Vergiliyga qarab-Odamzot va onggi bor barcha mavjudotlar doimo kuchli bo'lishga intilishadi.Ammo ular bilishmaydiki,kuch bu ularning o'zi ekanligini-deyishi bilan Vergiliy bilintirmasdan kulib qo'ydi

-O'zini gapini o'ziga aytishmi?-dedi Mira Keytni yoniga turib olib

-Bu gaplarni asl egasi men emasman-dedi Vergiliy chiqib ketayotib-Ertaga soat 8 da tayyor bo'lib turinglar-deb chiqib ketdi.Bu kecha barcha jamoa azolari uchun 5 asrdek o'tdi,Keyt va boshqalar uxlayman deganda xam uyqu yo'q.Kolindan tashqari albatta.U xozir 7-tushini ko'rayotgandi.Barcha sabrsizlik bilan tong otishini kutayotgandi.

-Maylimi,seni bir daqiqaga-deb Sara kirib keldi.Keytni uni quchoqlab qo'yib divanga yoniga o'tirdi.

-Xo'sh-dedi Keyt Saraga yuzlanib

-Agar-dedi tortinibroq-Agar men rostan xam Iblislardan biri bo'lib chiqsam-dedi

biroz sukut saqlab-Nima qilishni xam bilmay qoldim.

-Bir yo’lini topamiz-deb Sara uning qo’lini ushlab oldi.Tong xam otdi.Vergiliy ularni ancha xarobaga aylanib qolgan ko’chalardan olib ketardi.Mira esa qo’rqib ketardi.Shu payt ularning qarshisida katta bino ko’rindi.Uning tepasiga esa

-Iblis xam yig’lashi mumkin-degan yozuv yozib qo’yilgandi.

-Eshik odatda ochiq bo’ladi-dedi Vergiliy eshikni ochib.Barcha ichkariga kirdi.

-Agar ish bilan kelmagan bo’lsangiz daf bo’lib-degan erkak kishining ovozi eshitildi.Vergiliy Keytga gapir degandek qaradi.Keyt sal tortinibroq turdi va

-Agar men bo'lsamchi-dedi.Shu payt qizil plashga o'ranib olgan,sochlari yelkasiga tushib turgan va ranggi xam xuddi Vergiliy va Keytnikidek oq bo'lgan,juda xam yoqimtoy,kelishgan bir so'z bilan aytganda ideal yigit chiqib keldi.Yoshi Vergiliy qatori edi.

-Key-dedi U biroz xayajonlanib-Doimgidek Vergiliy bilan

-U xotirasini yo'qotgan-dedi Vergiliy qo'lidagi gitara g'ilofini divanga qo'yib

-Ishonmayman-dedi U kulib-Kimsan Qora Burgut Spardaning qizi-deb baralla kulardi.

-Sen Dantemisan-deb uning gapini bo'ldi Aleks

-Xa-dedi kulishdan to'xtab-O'sha Dante menman-deb ikki qo'lini barilla yozib gapirdi.

-Aytchi Key-dedi Dante unga qarab-Shuncha paytdan beri qayoqda eding-dedi unga yaqinlashib-Men seni xotirang yo'qolganiligiga ishonmayapman-dedi unga tikilib.Shu payt Keytning boshida yana og'riq turdi.Yana bir soniya ichida juda ko'p tasvirlarni ko'rdi.Endi Keyt bir tepalikda turardi.Pastda esa 2 yigit maxluqlar bilan olishardi.Ularning ko'rinishi iblislarga o'xshab ketardi.Ular Keytga Dante bilan Vergiliyni eslatib yubordi.Kutilmaganda Dantega o'xshagan qizil iblis yaralandi.Xavorang rangli iblis esa uni ximoya qilish uchun oldiga turib oldi.

-Ey-deb tepadan turib Keyt baqirdi-Shuncha jangchi 2 yigitga qarshi chiqishga uyalmaysizmi-deb pastga tushib bora boshladi.Keyt yaxshilab etibor berib qaradi.Qo’lida qilichi yo’q edi,chunki qo’llarini 2 tomonga yozib gapirardi.

-Esingni yedingmi,ket-deb baqirdi odamga aylanib olgan Vergiliy-Ular seni o’ldirishadi.

-Meni ko’pchilik o’ldirishni istaydi-deb Keyt xatto pinagini xam buzmadi-Sizlar Spardaning o’g’illarimisizlar?-deb ularga yuzlandi.Iblislar Keytga xam tashlanishdi.

-Yaxshi keyinroq gaplashamiz unda-deb kaftini yozib yerni ustiga olib bordi-Endi esa ishga-deyishi bilan yerni tagidan qilich chiqib keldi.Bu qilich juda xam katta bo’lib,oddiy inson uni ko’tara

olmasdi.Uning ko'rinishi Keytning bo'yidan sal pastroq,qop-qora rangda va afsonaviy ritsarlarning shamshirlariga o'xshab ketardi.Dastasida esa qora burgut tasvirlangandi.Keyt qilichni ushlashi bilan yana xushiga qaytdi.O'zini Aleksni qo'lida ko'rdi.Vergiliy esa undan sal uzoqroqda turardi.

-Xozir nima bo'ldi-dedi Dante xech narsaga tushunmay-Kimdir tushuntirib beradimi?=deb izoh kutdi.

-O'sha kun-dedi Keyt ko'rganlarini eslab-Tepalikda,sizlar bilan jang qilganimda-deyishi bilan Dante uni gapini bo'lib qo'ydi

-Bundan 45 yil oldin-dedi Dante stuliga o'tirib olib-Sen bizni qutqargansan

-O’shanda xayron qolgandik-dedi Vergiliy jilmayganini bildirmay-Seni o’sha payt opamiz ekanligingni xam bilmagandik

-O’zi meni oldimga nega kelgandingiz?-dedi Dante pitsasini paqqos tushirib.

-Yordaming kerak-deb bo’lgan barcha narsalarni aytib berishdi.Ammo doimgidek Sara va Kolin yo’qolib qolishdi.

-Qilichni toppish de-deb Dante o’zini divanga tashladi,biroz o’ylanib turib-Agar vaqt girdobiga iblislar olamida tushib qolgan bo’lsang,qilich xam o’sha yerda

-Ammo biz buni bilmaymiz-inkor etdi Aleks-Kimdir buni tasdiqlashi kerak

-Menda bir nomzod bor-sovuq jilmaydi Dante-Buning uchun esa seni yordaming kerak Key

-Nega meni Key deb chaqirayapsizlar-dedi ikkisi qarab.Ular bir-biriga qarab olishdi va Dante kulib yubordi

-O’sha tepalikdagi jangni eslabsan-derdi bir vaqtda kulib-Ammo gaplashganimizni eslamabsan

-O’shanda sendan ismingni so’raganimizda-deb Vergiliy jiddiylikni yo’qotmay javob berdi-Jangda qattiq jaroxatlar olganing uchun xushingdan ketay deb turgandingda Keydeb javob berishga ulgurgansan-den u xam ukasining yoniga o’zini tashladi.

-Demak o’sha paytdan beri meni Key-deb chaqirasizlar-deb kulib qo’ydi Keyt.Mira mashq qilishni xoxlab qoldi va xech kim yo’q ko’chaga yolg’iz chiqib ketdi.Qilichini olib,tezlik va boshqa narsalarni mashq qilayotganida ortida

xarakat sezdi.Ammo ortiga qaraganida xech kim yo'q edi.Mira qilichini ikki qo'llab ushlab tayyorlana boshladi.Agar bu Aleks bo'lganda bunday kelmasdi.Kolin dangasa bo'lgani uchun ko'chaga umuman chiqmaydi.Sara esa kelayotganini doimo bildirib qo'yadi.Vergiliydan va Danteda bir xil iforni 1 km dan sezsa bo'ladi.Demak,Keyt-deb o'ylab tezda u fikridan qaytdi.Aslida unga Mira xujum qilardi.Keyt emas.Shu payt chapdagi qorong'ulikdan bir sharpa chiqib kela boshladi.Oppoq plashga o'ranib olgandi.

-Kimsan?-dedi Mira qo'rqqanini bildirmay.Ammo u umuman gapirmasdi.

-Kimsan?-deb Mira yana bir bor gapini qaytardi.

-Seni ajaling-deb unga tashlandi.

Ichakaridan xamma Dantening rejasini eshitib o’tirgan payt Aleks qon isini sezib qoldi

-O yo’q-deb Aleks ko’chaga otilib chiqib ketdi.Qolganlar xam unga ergashishdi.Vergiliy qilichini qo’liga olib chiqdi.Ular 2 ko’cha narida Mirani topishdi.Ammo u deyarli o’layotgandi.Dante qo’liga to’pponchasini olib atrofni tekshira boshladi.Yerdagi 2 ta o’rtasiga odam sig’sa bo’ladigan yoriqchalarni ko’rib

-Menimcha ovlamoqchi bo’lgan odamimiz o’z oyog’I bilan kelibdi-dedi atrofga qarab

-Aleks axvoling yaxshimi?-dedi Key tuning yuzidagi o’zgarishni ko’rib

-Yaxshiman-deb vishillab Aleks Mirani ko'tarib oldi.UNi ikkinchi qavatga olib chiqishdi.U yerda esa Dante va Vergiliyning qancha yordam berishiga qaramay Mirani qutqarib qola olishmadi.Keyt uning o'lganini eshitib o'zini yo'qotib qo'ydi.To'g'ri tepaga chiqib bordi.U ishonmas edi,Miraning o'lganida ishonmas edi.Ammo tepada oq mato tagida uning jasadini ko'rib es xushidan ayrilib qolay dedi.

-Ketamiz-deb Aleks uni pastga olib tushib ketdi.Pastda esa barcha xomush kayfiyatda o'tirardi.Saraning yuzini esa ko'z yoshlari artardi.Ular shu xolatda kechgacha o'tirishdi.Keyin esa Dante o'rnidan turdi

-Afsuski,-dedi xorg'in kayfiyatda-Xayot davom etadi,biz o'sha yaramasni bugun

topamiz-deb o’ng qo’lini qo’shni xona tomon cho’zdi.Shu payt uning qo’liga bir qilich uchib keldi.Xuddi Keytniki kabi edi.Ammo Keytning qilichiga qaraganda ancha katta va eniga xam qalin edi.Ular qilichlarini gitara qutisiga yashirishib yo’lga tushishdi.Bir eski xarobaga aylangan ko’chaga kelishdi.U yerda esa ular xaqiqiy daxshatni ustidan chiqishdi.Odamlar maxluqlarga aylanishardi.

-Shularning ichidan o’sha yaramasni topamiz-dedi Dante qilichini qo’liga olib-U xozir ajal qo’ng’irog’ini ishlatayapti,oq plash,uzun bo’yli erkak,ko’rsangiz bilib olasiz-deb Dante ularning ichiga kirib ketdi.Sara va Keyt esa to’pponchalarni olib tayyorlanib kirib ketishdi.Ularning ortidan esa Vergiliy,keyin Aleks bir

qo’lida olov bilan ikkinchi qo’lida muz bilan jangga kirib ketdi.Kolin esa bir esnab qo’yib bo’riga aylandi jangga otildi.Ular deyarli yarim soat deganda o’sha yaramasni topishdi.

-Va nixoyat-dedi Dante qilichini yelkasiga qo’yib-Seni topamiz deganimidim Baltazar-deb shunday sovuq tabassum qildiki.

-Mendan senga nima kerak Dante-dedi Baltazar unga qo’rqib qarab

-Bugun bir do’stimizni o’ldirding-dedi Keyt to’pponchani uni yuziga qadab-Endi bugun o’zing o’lasan-deb tepkini bosmoqchi bo’lgani uni Vergiliy to’xtatib qoldi.

-Anovi qizaloqmi?-deb u kulib yubordi.Sara esa uni oyog'iga o'q joylab qo'ydi.

-endi esa gapir-dedi Dante xatto pinagini xam buzmay-Iblislar olamida 3 afsonaviy qilich bor deb eshitganman

-Demak ertak eshitishni xoxlaysanmi Dante-dedi Baltazar uni ustidan kulib,shu payt yelkasiga Dante qilichini suqib qo'ydi.Baltazar jon azobida aytishga majbur bo'ldi

-Xa,bor-deb baqirib yubordi-Markaziy saroyning g'arbiy qismida toshga sanchilgan 3 qilich bor.Aytishlarich biri Qora bugutga tegishli ekan.Qolganlari esa uning sheriklariga.

-Ularning ismlari-deb Vergiliy Dantening qilichini qimirlata boshladi

-Qizil Lochin va Sharpa-deyishi bilan Dante Keytga mayli degandek ishora qildi.Keyt esa to’pponchani olib Baltazarni boshiga o’qdonni bo’shatdi.Ular uyga xorg’in axvolda qaytishdi va barcha o’zini divanga tashladi.Shu payt Aleks va Kolin xushyor tortishdi.

-eshitdingmi?-dedi Aleks yuzida xayron qolganlik ifodasini namoyon qilib.

-Faqat bu tush dema-dedi Kolin va ikkisi tepaga otilib chiqib ketishdi.QOlganlar esa tushunmaganliklari uchun birinma ketin tepaga chiqishdi.Tepada esa ular qornini ushlab olgan Mirani yotoqda o’tirgan axvolda ko’rishdi.BUni ko’rib Keyt va Sara o’zini tashlab yuboray deyishdi.

-Menga nima bo'ldi?-dedi Mira turishga urinib.Yiqilib tushay deganda Dante uni suyab qoldi va o'rniga yotqazdi.

-sen dam olishing kerak-deb uni ko'zdan kechira boshladi-Yaradan xech qanday asar xam yo'q.Uxla ertalab turganingda barchasini muxokama qilamiz.-deb uni uxlatib pastga tushib ketishdi.Keyin esa barcha mexmonxonada yig'ilib o'tirishganida Dante barchaga qaxva olib keldi

-Sizlar xam uxlay qoling,ertaga barchasini muxokamasi bo'ladi-deb ularga qaxva berib chiqdi.Keyt va Sara qaxvani bir ko'tarishda ichib yuborishdi.

-Menimcha uxlolmasam ke..-deyishi bilan Sara va Keyt o'zlarini divanga tashlab uyquga ketishdi.

-Uxlay olasiz-deb Dante qaxvada xo'plab oldi-Uyqu dori qo'shganimdan so'ng albatta uxlaysiz-deb o'zi xam uyquga ketdi.Erta tongda esa barcha uyg'ondi.Aleksdan boshqa barcha albatta.Chunki u vampire edi va umuman uxlay olmasdi.Barcha mexmonxonada o'tirishardi.Dante esa nimanidir sabrsizlik bilan kutardi.Shu payt eshik qo'ng'irog'I jiringlab qoldi.Dante esa xursand bo'lganidan osmonlarga sig'may ketdi.Biroz vaqtdan so'ng esa qo'lida bir nechta pitsani ko'tarib kirib keldi.Boshqa qo'lida esa ichimliklar edi.Shunday qilib ular nonushta qila boshlashdi.

-BU qanday ovqat-dedi Mira bir tishlab ko'rib

-Pishloqli pitsa-dedi Keyt uni xali xam tirikligiga ishongisi kelmay

-Mazali ekan-deb Kolin deyarli barchasini paqqos tushirib qo'ydi.Barcha ovqatlanib bo'lgach Dante gapira boshladi

-Ovqat payti gapirmaganimning sababi ishtaxangiz buzilmasin degandim-deb ichimligidan xo'plab oldi-Chunki men aytadigan gap Mira va boshqalarga yoqmasligi mumkin.

-Qanday gap ekan-dedi Aleks Keytning ichimligini bir qo'l tekkazib muzdek qilib qo'ygandan so'ng

-Sara va Mira xam iblislardan-deyishi bilan Kolin ichayotgan ichimligini qo'lidan tushirib yubordi

-Xazillashyapsizmi?-deb uning gaplariga ishonmadi Mira-Men iblis bo'lishim mumkin emas

-Naxotki-dedi Dante uni ko'zlariga tikilib-Seni kecha o'ldirishgandi,o'zim seni tekshirgandim.Bugun esa jaroxatingdan xattoki chandiq xam yo'q

-Bo'lishi mumkin emas-dedi Aleks ko'zlariga ishonmay

-Sarani qayerdan bilding?-dedi Kolin unga yuzlanib

-Iblislarda o'ziga xos aura bo'ladi-dedi boshqa ichimlik olib-Qachon ular o'z kuchini ko'rsata boshlaganda aura faollashadi.Buni kecha jangda sezgandim

-Men iblis emasman-deb Mira shu gaplarni qaytara boshladi.Keyt esa uni quchoqlab oldi

-Xammasi yaxshi bo'ladi-deb uni ovutardi.

-Barchasi,barchasi yaxshi bo'ladi-deb ularni Sara xam quchoqlab oldi.Ular shu xolatda 5 daqiqa o'tirishdi.

-Buni qaranglar-dedi Dante ularga termulib-Bundan ancha yil oldin men bu xolatga kelishimdan avval-deb o'ziga ishora qildi-O'shanda Vergiliyni o'ldirishga xam tayyor edim-deb chekkada qilichini sayqallayotgan Vergiliyga ishora qildi.

-NIma uchun?-deb qiziqdi Aleks

-Uzun xikoya-deb Dante oyog'ini stolga qo'yib yastanib o'tirib oldi.

-Xullas-dedi Vergiliy qilichini qiniga solib-Qilichlarni qayerdaligini bilamiz,endi esa

borib ularni olib kelish kerak..-deyishi bilan Keytni gapi uni etiborini tortdi.

-Bilishimcha iblislar o’z qilichini o’ziga chorlashi mumkin ekan-dedi ko’rganlarini esiga olib-Men xam shunday qilishim mumkinmi?-deb ularga yuzlandi.

-Agar iblisga aylana olsang qilishing mumkin edi-dedi Dante qo’lidagi o’ralgan qog’ozni axlat qutisiga tashlab-Ammo qilolmaysanmi deb qo’rqaman

-Senda iblis qilichi bo’lmagan-dedi Keyt eslashga urinib-Unda sen qanday qilib unga erishgansan

-BIlasanmi Key-dedi Dante oyog’ini stoldan tushirib-Qachon meni uni-deb VErgiliyga ishora qildi-O’ldirishga urinib

yurganimda otamizdan qolgan qilichni sindirib qo’ydim-deb tarixni esga oldi

-O’shanda men katta xato qilgandim-dedi Vergiliy xam tarixga yuzlanib-O’shanda qilichimni o’zimga sanchib tanamdagi iblisni va odamni chiqarib yuborgandim.

-Keyinchalik esa meni aldab yana shu xolatiga qaytgan-deb unga yov qarash qilib qo’ydi-Otamizni qilichi tufayli men iblisga aylana olganman-deb Dante gapini yakunladi.

-Xozir u qilich qayerda-dedi Keyt qiziqib.Vergiliy xam unga qaradi.

-Qilich xozirda o’z joyida-deb Dante pastga ishora qildi-Uni pastdagi muzeyimga qo’yib qo’yganman.

-Xullas-dedi Vergiliy toqati toq bo’lib-Qachon yo’lga tushamiz-deb barchaga yuzlandi.

-Key qilich seniki-dedi Dante qo’lidagi qog’ozlarga qarab-O’zing xal qil

-Ertaga yo’lga chiqamiz-deb fikrini aytib Sara va Mirani oldiga chiqib ketdi.Mira Saraning quchog’idan chiqmay o’tirardi.Keyt uning yoniga kelib o’tirdida uni boshidan silab qo’ydi

-Keyt-dedi Mira ovozi qaltirab-Endi nima bo’ladi?-deb unga shunday qaradiki,Key tuning ko’zlarida o’z yoshligini ko’rdi.U xam xuddi Miradek Saraning quchog’iga kirib olardi.Qachonki yomon xolat bo’lganda yoki qalbi jaroxatlanganda doimo shunday bo’lardi.

-BIlasanmi-dedi Keyt unga yaqinlashib-Bizning ichimizda sen yagona emassan-deb uni ovuta boshladi-Masalan,men xam xuddi sendekman.Shunday ekan,endi sen doimo men bilan birga bo'lasan.Seni yolg'izlatib qo'ymayman-deb uni ko'zlariga qarab kulib qo'ydi.

-Nafaqat sen-deb Sara xam gapira boshladi-Afsuski men xam xuddi sendekman-deb Miraning beg'ubor ko'zlariga boqdi.Mira ularning barcha gaplarini diqqat bilan eshitib turardi.

-Endi yengil tortdim-deb kulib qo'ydi.Uning kulgisidan esa Sara va Keytning qalbi yorishgandek bo'ldi.Ertasi kuni barcha yig'ilishdi va safarga tayyorlana boshlashdi.Dante o'ziga kerakli bo'lgan barcha narsalarni taxt qilib qo'ydi.Barchasi tayyor bo'lgach esa

ular ko'chaga chiqishgan xam ediki,Dante to'xtab qoldi.

-Senga nima kerak Trish-deb ortiga o'girilmay gapirdi.

-Qayoqqa otlanding?-degan chiroyli ovoz ularning ortidan keldi.Ularning ortida esa ikki ayol turardi.Ikkisi xam bir biridan go'zal edi.Biri kalta yupka va koftada edi.Sochlari esa yelkasigacha xam tushmasdi.Ko'zlari esa biri qizil,ikkinchi ko'k rangda edi.Ikkinchi xam juda go'zal bo'lib,uning sochlari beligacha tushardi.Ko'zlari esa qizil rangda edi.Qora shim va qora ayollar kurtkasini kiyib olgandi.

-Naxotki sen xaligacha tiriksan-dedi sochlari kaltasi kelib Keytni quchoqlab.Keyt esa sal xijolat bo'ldi.

-Biz tanishmizmi?-degan gapidan so'ng esa umuman jinniga qaragandek qarab qoldi

-Senga nima bo'ldi Key-dedi uzun sochlisi-Men Trishman,bu esa Ledy-deb yonidagi qizga ishora qildi.

-U xotirasini yo'qotgan-dedi ulardan sal uzoqroqda turgan Vergiliy

-Vergiliy-deb Trish va Ledy sovuq tabassum qilib qo'yishdi.Bu tabassumdan esa Vergiliyning peshonasidan sovuq ter chiqib ketdi.SHu payt yana Keytning boshida og'riq turdi va u yana tasvirlarni ko'ra boshladi.

-Xali xam o'z jamoang bilan yuribsanmi?-bu Trishning ovozi edi.Ular qaxvaxonada o'tirishardi.Bir tomonda Trish va Ledy,ularning qarshisida esa Keyt.

-Xa-dedi muzqaymoqda bir tishlab-Menga yordamingiz kerak

-Qanday?-dedi Trish unga qaddini rostlab.

-Menga bir yaramas kerak-deb bir rasmni oldi-Sparda xaqida eshitganmisiz?-deyishi bilan ularning yuzi oqarib ketdi-O'shaning bir ashaddiy dushmani bo'lgan,uning og'li esa xozir shu yerda.Mana uning surati,men o'sha yaramasni o'ldirishim kerak-deb suratni Trishga uzatdi.Trish esa uni yaxshilab ko'zdan kechirib,keyin Ledyga uzatdi.

-Trish sen xam iblislardan birisan-dedi Keyt colasidan xo'plab-Ledy esa yarim odam,uni bilishingiz kerak.

-Men uni qayerdaligini bilaman-dedi Ledy tishlarini g'ichirlatib

-Menda xam uning qarzi qolib ketgan-dedi Trish qo'lini ushlab qo'yib-Ketdikmi,jamoang qani?

-Ular xozir boshqa olamda yashiringan iblislarni qidirishayapti-deb Keyt yonidagi gitara qutisini olib o'rnidan turdi.Ular eshikdan chiqishi bilan Keyt yana o'ziga keldi.Xuddi o'tgan safardagidek o'zini Aleksni qo'llarida ko'rdi.

-Axvoling yaxshimi,bu xolat oxirgi paytlarda ko'p qaytarilayapti?-dedi uning uchun qayg'urib.

-Yaxshiman-deb Keyt uning qo'llaridan chiqdi.Keyin esa Ledy va Trishga nazar soldi.O'sha ko'rganida qanday bo'lsa,xozir xam shunday edilar.

-Men qachon sizlar bilan oxirgi marta uchrashganimni bilmayman-dedi Keyt

ularga yaqinroq kelib-Ammo o'shanda bir yaramasni ovlaganimizda qanday bo'lgan bo'lsangiz xozir xam shunday sizlar-deb Trishni yelkasiga mushtlab qo'ydi-Umuman o'zgarmabsan

-Yana xotirasini yo'qotganmush-deb Trish uni quchoqlab qo'ydi.Keyin esa Ledy.

-Umuman olganda shunday-dedi Vergiliy yo'lga otlanib,qizlar xam ularga ergashishdi-Meni xam ko'rganidan keyin tanidi-deb barchasini aytib berdi.Ular deyarli xech kim yo'q yerga kelib bo'lishgandi.

-Menimcha sizlarga ortiqchi yordam zarar qilmaydi-dedi Trish jilmayib qo'yib.

-Albatta-deb Dante unga jilmayib qo'ydi.

-Bu ikkisining orasida nimadir bor-deb o’yladi Keyt.Vergiliy esa Dantega qarab turardi.

-Nega menga buday qaraysan?-deb shu payt tushinib qoldi-Men darvozani ochishni bilmayman.O’zing och-deb qo’llarini yozib oldi

-O’rganish kerak ukajon-deb Vergiliy qilichini oldi va xuddi dushmanni o’ldirgandek xavoni kesib plus belgisini chizdi.Xavoni kesganidan qolgan izlar esa barchaga ko’rinib turardi.

-Xo’sh kim birinchi-dedi Vergiliy ularga yuzlanib,xamma jim edi-Yaxshi unda birinchi qadam mendan-deb ichkariga kirib ketdi.Uning ortidan esa Dante,keyin esa boshqalar.Mira Sara va Keyt xam xuddi unga o’xshagan mavjudorlar ekanligini bilib o’zini erkin tuta

boshlagandi.Keyt va Saraning ortida qo’liga qilich ushlab olib ketardi.Ular darvozdan o’tayotganlarida tanalaridan kuchli elektr toki o’tganini xis qilishdi.Ularning tanasi muzlab qoldi va darvozadan o’tishgach o’zlarini tashlab yuboray deyishdi.Kolin va Aleksga esa jin xam urmagandi.

-Birinchi marta o’tganda-dedi Vergiliy ularga yordam berib-Barchada shunday bo’ladi.

-Oshqozonim bilan,buyragimni o’rni almashib qolgandek bo’layapti-dedi Sara qornini ushlab.

-O’tib ketadi-dedi Dante qilichini qo’liga olib-Endi esa olg’a,qasrga borganimizdan so’ng bizni nimalar kutishini xech kim bilmaydi.Yo’lda xam kimlarni uchratamiz bilmadim-deb ular yo’lga

tushishdi.Barcha Dante va Vergiliydan boshqa barcha atrofni kuzatib ketishardi.Osmon qop-qora rangda va xamma yoqda bironta xam o'simlik o'smasdi.Ariqlarda suvning o'rniga lava oqardi.

-Bu qanday joy-dedi Mira atrofni daxshatidan qo'rqib

-Bu yer qizaloq-dedi Trish uni yelkasiga qo'lini qo'yib-Iblislar olami…-deganidan so'ng uning gapini Ledy oxiriga yetkazib qo'ydi

-Sizlarning til bilan aytganda jaxannam-deb kulib qo'ydi.Uning kulgusi esa Mirani battar daxshatga tushirardi.Ular yana 5 daqiqa yurishganidan so'ng esa bir guruh askarlarni ko'rishdi.Ularning bari xaqiqiy iblislar edi.

-Men o’zim shug’ullanaman-deb Dante qo’liga qilichini olib ularning oldiga chiqib ketdi.Ularning oldiga qilichini yelkasiga qo’yib borardi.

-To’xta-deb baqirdi soqchilardan biri-Kimsan,to’xta yo’qsa o’ldiraman-deb qilichini o’qtadi.Dante esa kulib qo’yib

-Mayli-mayli qani urunib ko’ringlar-deb qilichini ularga o’qtaldi.Askarlarni bari xujumga o’tdi.Ular 5 nafar edilar.Dante ulardan birini qilichini parchalab yuborishi bilan qolganlari qo’rqib qolishdi.

-Sen Dantesan-dedi biri duduqlanib

-To’g’ri aytding-dedi uning ortida paydo bo’lgan Vergiliy-Salom yigitchalar

-Vergiliy-deb qolganlarining kapalagi uchib ketdi-Bizga yordam bergani qaytib keldingmi?-deb qo'li qaltiray boshladi.

-Umuman olganda yo'q-deb o'sha iblisni boshini chopib tashladi.Dante allaqachon 3 tasini tinchitib bo'lgandi.

-aytsang tirik qolasan-deb Vergiliy qilichini so'nggi tirik qolgan iblisning yelkasiga suqib qo'ydi

-NIma aytsam?-jon shirinligidan barini aytishga tayyor edi.Sara Mirani bu manzarani ko'rmasligi uchun quchoqlab olgandi.Kolin va Aleks esa ularning oldida turardi.Keyt tomoshani uzoqroqdan kuzatib turardi.

-Saroyda janubiy maydonda 3 ta qilich toshga suqilib turgani rostmi?-dedi Vergiliy uning qorniga oyog'ini qo'yib

-Xa-deb baqirib yubordi askar uning berayotgan og'irig'iga chiday olmay.Ular undan qasrning barcha yo'llari xaqida malumot olib bo'lishgach yana yo'lga tushishdi.

-Vergiliy-dedi Keyt uning yoniga borib

-Xa-dedi yo'ldan chalg'imay

-Men Trish bilan bo'lgan oxirgi suxbatimni eslaganimda-dedi o'sha damlarni eslab-O'shanda meni jamoam bo'lgan ekan-deyishi bilan Vergiliy barchasini tushindi

-O'shalarni kim ekanligini so'ramoqchimisan?-dedi uning maqsadini tushinib

-Umuman olganda xa-dedi uning topog'on ekanligiga xayron qolib-Menimcha dunyodagi eng yaqin bo'lgan

odamim sen bo’lgansan menimcha-deb uni turtib qo’ydi.

-UMuman olganda biz ikkimiz bilan xam yaxshi eding-dedi qayerdandir paydo bo’lgan Dante

-Seni eshitish qobiliyatingga qoyil qolaman-dedi uni biroz olding deyarli 20 qadam olisroqda ko’rganini eslab-Xattoki vampire xam bunday eshita olmaydi.

-Xullas savolingga javobni eshit-deb Vergiliy uning etiborini o’ziga qaratdi-Seni jamoangda yana 2 ta iblis bo’lgan-deb barmoqlari bilan sanay boshladi-Birinchisi sharpa,uning xam menikiga o’xshagan qilichi bo’lgan-deb o’z katanasiga ishora qildi-Uni sharpa deb atashganing sababi uni deyarli xech kim payqamagan.Boyqush degan qushni bilasan,u umuman shovqin qilmay

uchadi.U xam xuddi shunday uchgan va xech kimga o'zini borligini xech qachon sezdirmagan-deyishi bilan Vergiliyning gapini Dante ilib ketdi.

-Ikkinchi azo esa-deb Dante ularning oldiga tushib oldi-Qizil Lochin bo'lgan.Umuman olganda u xam xuddi sendek bo'lgan.Bilishimcha seni guruhingda barcha qizlardan iborat bo'lgan.Uni menga tariflab berishganida seni dugonangni ko'rgandek bo'laman-deb Saraga ishora qildi-Uning qilichi xuddi menikiga o'xshagan bo'lgan,ammo ixchamroq va ayollarga mos qilich bor bo'lgan-degandan so'ng yana Vergiliy tashabbusni o'z qo'liga oldi.

-Sen esa o'sha jamoaning komandiri eding-deb Keytga qaradi-sen yarim vampire ekanligingni bilasan,vampirlarni

barida qobiliyat bo'ladi.Xuddi do'stingdagidek-deb Aleksga ishora qildi,Aleks esa ularga yo'lbars nigohlarini qadab turardi-Sening qobiliyating esa mo'ljalni qancha uzoqdan bo'lsa xam aniq olish edi.QIliching esa xuddi Dantenikidek edi.Katta va beso'naqay-deyishi bilan Dante unga javob qaytardi.

-NIma senikiga o'xshab kichkina va cho'pga o'xshagan bo'lishi kerakmidi-deb katanasiga ishora qilib qo'ydi.Vergiliy esa joyida to'xtadi.

-Boshlamoqchimisan?-deb Dante unga sirli jilmayib qaradi-Buni yig'ishtiramiz deb men so'z berganman.Shuning uchun nima desang de-deb yana yo'lida davom etdi.

-Bir kun u bilan kuch sinashib ko'rishim kerak-dedi Vergiliy unga ortidan qarab

-Men esa xakam bo'laman-dedi Keyt unga kulib qarab

-B-bu o'shami?-dedi Sara qarshisidagi ulkan toshlardan tashkil topgan qasrga qarab

-Xattoki qora qasr xam bunchalik emasdi?-dedi Aleks o'tmishdagi janglaridan birini eslab.O'shanda u deyarli barcha askarlaridan ayrilgandi.O'sha jangni u xech qachon unutmagan,unutmaydi xam.

-Aksincha-dedi Kolin uning gapini bo'lib-Bundanda battar edi.Ular ikki guruhga bo'linadigan bo'lishdi.Ledy va Trish esa 3-guruhni tashkil qilishardi.Ular mustaqil xarakat qiladigan bo'lishdi.Birinchi guruhga Vergiliy boshchilik qiladigan bo'ldi.Ular shimol tomondan yaqinlashadigan bo'lishdi.Uning guruhida

Aleks,Keyt,Mira bor edi,Dantening guruhini esa Sara va Kolindan tashkil topgan bo'lib ular janub tomondagi qoyalardan tirmashib chiqadigan bo'lishdi.Vergiliy va uning guruhi qasrga kirib olishdi.Ular yo'lda ketayotganlari oldilaridan 2 askar chiqib qoldi.

-Men o'zim-deb Keyt endi ketayotganida Vergiliy uni to'xtatdi va ogoxlantirdi

-Qon chiqmasin,ular yaxshi xid oladi-deb ogoxlantirdi.Keyt tushundim degan ishorani qilib ularning ortidan sezdirmay yaqinlashdi.

-Xey-deb unga qaragan iblisning bo'ynini osonlik bilan sindirdi.Ikkinchi baqirib yubormasligi uchun og'zidagi ignani uning tomog'iga puflab sanchib qo'ydi.Ignaga chalg'iganida esa

vaziyatdan foydalanib uning xam bo'ynini sindirdi.

-G'alati-dedi Vergiliy jasadlarni yashirayotib

-NIma?-dedi Aleks uning nimaga shama qilayotganiga tushuna olmay

-Odatda qasrda askarlar xar qadamda chiqardi-deb o'zining shu qasrga ilk kelishini esladi-Lekin xozir faqatgina ikki askarni ko'rdik,bu yerda nimadir bo'layapti.

Dante va uning guruhi qoyalardan chiqib borar ekan,Sara Dantening yoniga keldi.

-Dante-deyishi bilan Dante ushlagan tosh ko'chib ketdi va u qulashiga oz qoldi.

-Nima deysan?-dedi Dante yana qoyaga tirmashib olib

-Men…-deb o'ylanib qoldi

-Iblis bo’lishim mumkinmi,demoqchimisan?-dedi uning fikrini o’qib.Saraning peshonasidan sovuq ter chiqib ketdi.

-Qayerdan bilding?-deb unga qo’rqib qaradi.

-Shunchaki?-deb tepaga tirmasha boshladi-Umuman olganda bo’lishing mumkin,xattoki boyagi qizaloq xam bo’lishi mumkin

-Naxotki?-deb Sara yig’lab yuborishiga oz qoldi.U o’ziga emas,aksincha Miraga achinayotgandi.

-men bo’lishi mumkin dedim-deb Dante mumkin so’ziga urg’u berdi-Yana bilmadim-deb tepaga sakrab chiqib oldi.Ular deyarli yetib kelishgandi.Kolin va Sara xam chiqib olishdi.

-Nega xech qanday askarlar yo’q-dedi Dante minoralarga qarab-Bironta xam

-Men xam shunga qiziqayapman-dedi uning ortida paydo bo’lgan Vergiliy.

-Esingdami seni o’ldirish uchun quvib borgan joyimga o’xshar ekan-deb Dante kulib qo’ydi

-Xa-deb Vergiliy xam kuldi.Kulish Vergiliyga umuman yarashmas edi.Kutilmaganda Dante unga qilichini sanchib oldi.

-vergiliyni o’ldirish uchun boshqa yerga borganman-deb qilichini aylantira boshladi,bu esa unga yanada kuchli og’riq berardi-Keyin u xech qachon kulmagan-deb qilichini uning tanasidan chiqarib oldi va boshini tanasidan judo qildi.

-Bunday iblislar qirilib ketgan deb o'ylagandim-deb uning jasadiga qaradi.

-Yetib keldikmi?-dedi Vergiliyning ortidan ketayotgan Keyt

-Xey yigit-deb Vergiliy orqada ketayotgan Aleksni chaqirdi-Vampirlarni eshitish qobiliyati yaxshi bo'ladi,qani bir atrofni tinglab ko'rchi-deb uni kuzata boshladi.Boshida xech narsaga tushinmagan Aleks keyinroq u dushmanlarni topish uchun skaner vazifasini bajarishi mumkin ekanini ilg'ab oldi.U atrofni eshita boshladi.Ammo xattoki pashshaning xam ovozi eshitilmasdi.Nafaqat pashsha xattoki,soatning xam chiqillashi eshitilmasdi.Aleks esa bundan juda xam xayratga tushdi.

-Bu yerda nimadir bor deganingda adashmagan ekansan-dedi Aleks Vergiliyga qarab

-NIma bo'layapti bu yerda?-dedi toqati toq bo'lgan Keyt

-Menimcha ular bizni kelishimizni bilishgan-dedi Vergiliy qo'liga qilichini olib-BU yerga katta tuzoq qo'yilgan-deb orqasiga qaramay yugura boshladi.Qolganlar xam uning ortidan yugura boshladi.Mira Keytning yonida borardi.

-Keyt-dedi uning qo'lidan ushlab olib-Qo'rqib ketayapman

-Qo'rqma-dedi Keyt uning qo'lidan maxkamroq ushlab-Men seni yoningdaman-deb yugurishardi.Ular yugurib ketayotgan yo'lakning oxiridan

yorqin qizg’ish narsa ko’rina boshladi.Ularga yaqinroq kelgani sayin uning olov ekanini ilg’ab olish mumkin edi.

-Tezroq-deb baqirdi orqaroqda kelayotgan Aleks.Ular yugurib qasr maydoniga chiqishdi.U yerda esa ularni Dante va uning guruhi kutib turardi.

-Bu yerda tuzoq bor-dedi Vergiliy kelishi bilan-Qilichlarni olib bu yerdan jo’nash kerak.

-Bilaman-dedi Dante qilichlar tomonga yugurib-Unda tezroq qani-deb baqirdi yugura turib.Ular qilichgacha yetib kelishdi.

-Qaysi biri mening qilichim?-dedi Keyt qilichlarga qarab.Ularning sanchilib turishi V xarfini eslab yuborardi.

-O’zing eslashing kerak-ularning ortidan juda xam yo’g’on ovoz keldi.Ular ortiga o’girilib qarashganida esa bo’yi salkam 4 metr bo’lgan,ko’zlari qizil rangda qo’liga esa kattakon nayza ushlab olgan iblisni ko’rishdi.Shu payt yana Keytning boshida og’riq turdi.Keyt yana eslay boshladi.Ular vayron bo’lgan qasr xarobalarida kurashardilar.Uning yonida bo’yi o’ziniki bilan teng,kulrang rangda bo’lgan bir iblis.Undan sal nariroqda esa ortida lochin qanotlari bo’lgan qo’liga esa Dante aytgandek yapon katanasi bo’lib,faqat iblis qilichi ko’rinishida edi.Kulrang iblisning xam ortida qanotlari bo’lib,ular ukkining qanotlarini eslatib yuborardi.Qo’lidagi qilichdan esa Vergiliy aytgan Sharpa ekanligini bilib olish mumkin edi.

-Meni yenga olmaysizlar-dedi ularning qarshisida turgan Mundo.Uning qanotlari ajdarni eslatib yuborardi.

-Zo’rdan zo’r chiqaveradi-dedi Keyt o’z xoliga qaytib.U oyog’I jaroxatlanganidan qilichiga suyanib olgandi.

-Extiyot bo’l-deb uni yiqilayotganida Lochin suyab qoldi.U xam o’z xoliga qaytganida uni Sara ekanini ko’rdi.

-Sen bizga xali ko’p kerak bo’lasan-dedi uni oyoqqa turg’azib

-Sizlar bilan kurashish men uchun sharaf-dedi Sharpa xam o’z xoliga qaytib,u Mira edi-Menimcha bizni vaqtimiz keldi opajonlarim

-Bunday dema tentak-deb uni Sara tezda jerkib berdi.

-Men bu yerda o’lmoqchimasman-deb Keyt qilichini maxkam ushladi-Ayniqsa manovi notavonni qo’lida-deb yana iblisga aylandi.Uning ortidan Sara va Mira xam iblisga aylanib jangga otlanishdi.Ular Mundoga xujum qilishardi.Ammo Mundo o’zining qilichi bilan ularni xujumlarini qaytarardi.SHu payt Keyt qilichida kuchli chaqmoq paydo qildi.

-Mana buni qabul qil-deb bor kuchi bilan uchib kelib unga zarba berdi.Mundo Keytning zarbasini qilichi bilan qaytardi.Ammo uning qilichi Keytning qilichidagi chaqmoqqa bardosh bera olmadi.Qilich parchalanib ketdi.Mundo esa zarbaning kuchidan 5 qadam nariga otilib ketdi.

-Kimsan o’zi?-deb Mundo singan qilichiga tayanib o’rnidan turdi.

-Men Keytman,Spardaning qizi-deb qilichini ko’tarib uchib kela boshladi-Seni ajalingman-deganidan so’ng yana xozirgi vaqtga qaytib qoldi.Keyt endi yerga tizzalab o’tirib qolgandi.Ularning qarshisida Mundo o’z askarlari bilan turardi.SHu payt ularning oldiga Dante bilan Vergiliy turib olishdi.

-Sizlarga ishonamiz-deb ular xam iblisga aylanishdi.Ikkisining xam ko’rinishi bir xil bo’lib faqat ranglarida farq bore di,Dante qizil,qora aralash bo’lsa,Vergiliy ko’k va oq aralash ko’rinardi.

-Spardaning farzandlarini yer bilan bitta qilish vaqti keldi…-deganda Keytning kulgisi uning gapini bo’lib qo’ydi.Xamma

unga xuddi jinniga qaragandek qarashardi.

-Nimasi kulgili,yoki o’lim oldidan aqldan ozdingmi?-deb Mundo uning ustidan kulmoqchi bo’ldi-Gapir malika

-Keyt axvoling yaxshimi?-dedi Aleks uning oldiga kelib.Ammo Keytning bir qo’l ishorasi bilan u to’xtab qoldi.

-Bilasanmi,men xotiramni tiklab borayapman-deb Keyt o’rnidan turdi va qilichlar qadalgan tosh tomon yura boshladi-Adashmasam bizning so’nggi jangimizda o’lishingga oz qolgan ekan-dedi toshni oldiga kelib.

-eslading?-deb Mundo xayratlangandek bo’ldi

-Qilichingdan qolgan yagona bo’lakni nayzangni uchiga qo’yibsanda-deb nayzasiga ishora qildi

-Menimcha sen rostan xam eslading-deb askarlariga yuzlandi-Ularni yo’q qiling.

Barcha ularga qarab kela boshladi.Ammo Dantening qilichidan chiqqan olov va Vergiliyning qilichi xosil qilgan shamol ularni uchirib shu bilan birga kuydirib yubordi.

-Menimcha xammasini baribir o’zim qilishim kerak-deb Mundo ensasini qotirib jangga kirmoqchi bo’lganida yana uni Keyt to’xtatdi.

-Bilasanmi,men anime filmlar ko’rishni yoqtiraman-deb Saraga qarab gapirardi,barcha qotib qolgandi-O’sha animeda bir qaxramonning gapidan

keltiraman-deb qo’lini qilichiga olib bordi-Ammo u bu gapini texnikaga bag’ishlab aytgandi,men esa uni jangchiga bag’ishlab aytmoqchiman

-Qanday gap ekan-dedi Sara yoshligini eslab.O’sha paytlari Keyt qaxramonlarning gaplaridan aytardi,Sara esa ularni topishga xarakat qilardi.

-Xar bir jangchining o’z nozik tomoni bor-deb qo’lini qilichining dastasiga qo’ydi,barchaning ko’zi unda edi-Sening nozik tomoning esa-deb biroz sukut saqlab turdi va Keyt xam iblisga aylandi-Mening mavjudligim-deb qanotlarini yozdi.Keytning ko’rinishi xam Dantenikiga o’xshab ketardi.Ammo qora rangda edi.Barcha unga xayrat bilan tikilib turardi.

-Sara,Mira-deb ularga yuzlandi-Qilichlaringizni oling,o'sha kungi jangni yakunlaydigan vaqt bo'ldi-deb o'zi Dante va Vergiliyning oldiga bordi.Keyt o'zida o'zgarishni xis qilayotgandi.Qilichi xuddi u bilan gaplashayotgandek edi.

-yomonmas Key-dedi Vergiliy iblis ovozida-Qani endi bayramni boshlaymiz

-Faqat birinchi qadax so'zini men aytaman-dedi Dante ularga tashlanib.Uning ortidan esa qolganlar tashlanishdi.Keyt ikki iblisni o'ldirgan payti uning ortida Mira va Saraga xujum qilishga shaylanayotgan ikki iblisni ko'rdi.Kolin bo'riga aylanib boshqa iblislar bilan kurashardi.Aleks esa yondirish bilan ovora edi.Shu payt qasr tomida qattiq portlash ovozi eshitildi.Keyt unga etibor bermay Sara va

Mirani ximoya qilish uchun yugurib ketdi.Qanotlarini yozib uchishga xarakat qildi va ularning oldida tezda paydo bo'ldi.Ikki iblisni osonlikcha o'ldirib yana odamga aylandi.

-Men barini esladim-deb ularni qilichlar oldiga boshlab bordi-Agar qilichingizni qaytarib olsangiz xotirangiz xam qaytishi kerak.

-Men…men…bilmadim-dedi Mira ortga xarakat qilishga xarakat qilib

-Menga qara qizaloq-deb Keyt uni o'ziga qaratdi-Sen aytgan eding,sizdek kuchli bo'laman deganding.Mana vaqti keldi,qilichni ol va biz birga kurashamiz-deb qilichiga ishora qildi.Mira qo'rqib Keyt ko'rsatgan qilichni oldiga bordi va qilichini ushlab kuch bilan o'ziga tortdi.Xamma Mirada xam o'zgarish

bo’ladi deb kutishgandi.Ammo xech narsa sodir bo’lmadi.

-Nimadir bo’lishi kerakmidi?-dedi Mira qilichiga qarab

-Sizlar bilan nimadir sodir bo’lishi kerak edi,menimcha sizlar o’zingizni kimligingizga xali ishonmaysiz-deb Keytning ko’zi ularga yaqinlashib kelayotgan Mundoga tushdi-Sizlar qilich bilan shug’ullanib men esa Mundoni bir yoqlik qilaman-deb iblisga aylanib uning oldiga uchib bordi.

-Qani buyoqqa kel-deb qilichida chaqmoq xosil qilib unga zarba berdi.Ammo u zarbani qaytardi.Lekin bari avvalgidek bo’lmadi.

-Men ancha shug’ullandim-dedi Mundo sovuq tabassum qilib.Ular yana kurasha boshlashdi.

-Bilasanmi,sizlar qanday qilib vaqt girdobiga tushib qolgandingiz-dedi Mundo telbalarcha jilmayib.Shu payt Keyt bularni ko’rmaganligi esiga tushib qoldi.Mundo esa buni sezib battar kula boshladi

-O’shanda sizlarni yo’q qilish uchun vaqt tuynugini men ochgandim-deb xammasini o’zi ayta boshladi-O’sha tuynukni esa sizalar yopishga qaror qildingiz va xozir eng so’nggi kalit olib tashlanadi-deb qilichini sug’urayotgan Saraga ishora qildi-O’zing yopgan eshikni o’zing ochayapsan-deb yovuzlarcha kulib qo’ydi.Keyt esa bor tezligi bilan Sara

tomonga uchdi.Ammo ulgura olmadi.Sara qilichni sug’urishga erishdi.

-Men xammasini bilishim kerak edi-deb keyt o’zini ayblay boshladi.Shu payt esa toshdan yorqin nur tarala boshladi

-Agar tosh parchalanib ketsa-dedi Mundo ularning ortida turib baqirar ekan-Yana o’sha tarix takrorlanadi,Dejavyu-deb o’sha joyidan turib baqirardi.

-Buni qanday qilib to’xtatish mumkin?-dedi Sara toshga qarab

-Mana bunday-dedi qayerdandir paydo bo’lgan Trish.Uning qo’lida kattakon qilich bor edi va u qilichni ko’tarib o’sha toshga suqib qo’ydi.Tosh yana o’z xoliga qaytib qoldi.

-Bu nima edi?-dedi Mira qilichga qarab

-mening qilichim-dedi Trish undan qo’lini olib-endi uni faqat men sug’ura olaman

-Yo’q,yo’q yo’q-deb Mundo g’azablana boshladi-Bunday bo’lmasiligi kerak edi-deb bor kuchi bilan baqirib yubordi.Uning qichqirishidan atrofda kuchli shamol turdi.

-Bu yerdan ketish kerak-dedi ularning oldida paydo bo’lgan Vergiily

-Xozir unga kuchimiz yetmaydi,ketamiz-deb Dante xam uning fikriga qo’shildi.Barcha bir joyga jam bo’ldi.Vergiliy yana darvozani ochdi va ular o’z olamlariga o’tib ketishdi.Ular o’tib ketishganlaridan keyin esa Mundo o’z oldiga bir askarini chaqirib oldi.

-Barcha askarlarni yig’-deb unga buyruq berib jo’natib yubordi-urushga

tayyorgarlik ko’ringlar-deb o’tli nigoxini ufqqa tikdi.

Keyt va boshqalar yana Dantening ofisi oldida paydo bo’lib qolishdi.Ularni ko’rib pochta olib kelgan pochtalyon qotib qoldi.

-Menga pochta bormi?-dedi Dante uning oldiga kelib.Pochtalyon esa jim turardi.Dante uning qo’lidagi pochtalarni birma-bir olib o’qib ko’rdi.

-Meni nimadan qarzim bor bilmayman-deb pochtalarni barini otib yubordi.

-Ledy Trish axvolingiz yaxshimi?-dedi Keyt ularni ko’rib

-Xa-dedi Trish o’tirib olib-Men avvaldan shunday bo’lishini bilgandim,shuning uchun boshidanoq rejam qilichni topish va sizlarga yordamlashish edi.

-Naxotki?-dedi Dante uni yoniga o’tirib olib

-Unda omadimiz kelibdi?-dedi Vergiliy qilichini qiniga solib-Sizlarni axvolingiz yaxshimi?-deb qolganlarga yuzlandi.Aleks va Kolinda yengil jaroxat,qolganlarga esa jin xam urmagan.Ular ichkariga kirishdi va o'zlarini divanga tashlashdi.

-nega bizda o’zgarish bo’lmadi?-dedi Sara qilichi bilan xavoni kesib

-Chunki sizlar Key aytgandek o’zingizni kimligingizga ishonmayapsizlar-dedi Dante uyqisirab

-Barchasi yaxshi,endi esa onamni oldiga qaytishimiz kerak-dedi Keyt muzlatkichdan bitta pivo olib

-Kel bugun dam olamiz-dedi Aleks uyqidagi Kolinga qarab.keyt esa rozi bo’lishga majbur bo’ldi.ertasiga esa barchaga raxmat aytishib ular yo’lga tushishdi.

-Vergiliy bilishimcha bu qilich bilan olamlarga yo’l ochsa bo’ladi-dedi Keyt yelkasiga osib olgan gitara sumkasiga qarab

-Xa,bo’ladi-dedi qilichini chiqarib-Qilichingni ol,o’rgataman-deb qoliga qilichini oldi.Keyt xam qilichini olib uni takrorlay boshladi.

-Shunchaki o’zingga ishon va bajar-deb o’sha safardagidek plus belgisini xavoni kesib chizdi.Keyt uni ortidan bajardi va birinchi safarni o’zidayoq u darvozani ocha oldi.

-Bilasizlarmi,men katta pitsani 5 daqiqada yeyishimga to'g'ri keldi-dedi ularni ortidan chiqib kelgan Dante-Bu esa meni yanggi rekordim.

-Seni uyg'otgimiz kelmadi-dedi Keyt unga kulib qo'yib

-Yana kelaman deb so'z ber-dedi Dante uni qarshisiga turib olib

-Albatta,jamoa bo'lib kelamiz-dedi qizlarga ishora qilib

-Kutaman-deb Dante yo'ldan qochdi.Ular Keyt ochgan yo'ldan o'tib ketishdi.

-Uchrashguncha Key-deb baqirib qoldi Ledy.Keyt esa o'tib ketishidan oldin ularni quchib oldi.

-uchrashamiz-deb yo'lakdan o'tib ketdi.Ular yo'lakdan o'tishganda yana

oshqozonlari bilan buyraklarining o’rni almashib qolgandek bo’ldi.

-Bunga ko’nikishm kerakmi deyman-dedi Kolin qornini ushlab

-Unda tezroq ko’nikish kerak-dedi Aleks uni yoniga tizzalab o’tirib olib

-Menimcha bu sumkalarni endi bizga keragi yo’q-dedi Keyt sumkadan qilichini chiqarib olib-Qani olg’a-deb qasr tomon yura boshladi.Ular ikki kun deganda qasrga xam yetib kelishdi.Qasrda esa ularni toqati toq bo’lgan Anna va uni tinchlantirish bilan ovora bo’lgan Edmund kutib turardi.Anna ularni ko’rib xursand bo’lganidan borib ularni quchib oldi.Ularni qaytib kelgani sharafiga esa bazm uyishtiriladigan bo’ldi.

-Keyt-dedi Sara uni mashq zaliga chaqirib-Balki mashq qilarmiz

-Bugun bal bor-deb Keyt ketmoqchi bo’lganda uni Miraning qilichi to’xtatdi.Mira qilichini Keytning yo’liga qarata otgandi va qilich uning yo’liga sanchilib qolgandi.

-menimcha bu qo’pol xazil edi-dedi Keyt qilich kelgan tomonga qarab

-Avval kurashamiz-dedi Mira qilichini qo’liga olib-Qani-deb qilichini unga o’qtadi.Keyt esa kaftini yozgandi qo’liga qilichi kelib tushdi.

-Xujum qilinglar-dedi ularga qarab.Ular xujumga o’ta boshlashdi.Keyt ularning zarbalarini qaytarib ular bilan kuchlari qolmagunigacha olishdi.Keyin esa rahmat aytib tepaga kiyingani chiqib

ketdi.Vanna qabul qilib chiroyli qora ko'ylagini kiydi.Keyin esa pastga tushdi.barcha tayyor edi.Mira doimgidek Viktor bilan,Sara  esa Kolin bilan.Aleks Keytni zina tagida kutib turardi.

-Salom-dedi Aleks uni ko'rib

-Salom-dedi Keyt kulib qo'yib.Ular kulishib bal zaliga borishdi.Endi bal boshlangan edi xamki,qasr oynalari sinib ichkariga bir guruh iblislar bostirib kirishdi.Ulardan biri Kolinni bo'g'ziga qilich tirade.Shu payt Saraning ichida nimadir yongandek bo'ldi.Xuddi kimdir uning ichida olov yoqib yuborgandek.Sara xam kafrini ochganida qo'liga qilichi kelib tushdi va shu zaxoti iblisga aylandi.To'g'ri borib Kolinni o'ldirmoqchi bo'lgan Iblisning boshini oldi va shu zaxoti yana odamga

aylandi.Iblislardan biri Viktorni xam asrga olgandi.Viktor qochmoqchi bo'lganida iblis uni boshiga urib xushsizlantirgandi.Mirada o'sha iblisni o'ldirish xoxishi paydo bo'ldi.Keyin esa u xam o'z qilichini chaqirdi va iblisga aylandi.Keyin esa tezlikda o'sha iblisni tanasini ikkiga bo'lib yubordi.Ammo u odamga qaytib aylanmadi.Yana iblislarni o'ldirishga tushdi.Keyt esa allaqachon iblisga aylangan va bosqinchilarni qirardi.Sara xam unga yordamlasha boshladi.Keyin esa Mira xam ularga qo'shildi.Ular iblislardan birin asrga olishdi va Keyt uning qorniga qilichini suqib qo'yib so'roq qila boshlashdi.

-Kim yubordi-dedi Keyt qilichini aylantirib

-O’zing bilasan-dedi iblis ingrab yuborib

-Demak Mundo o’zi kelishga qo’rqibdida-dedi Sara odamga aylanib

-U yana keladi-dedi askar vishillab-Bu ogoxlantirish edi

-NIma tushunmadim?-dedi Keyt qilichini yana aylantirib

-U yana keladi-dedi askar so’zlarini takrorlab-Urush boshlandi,jaxannamga ravona bo’lasizlar-deb yuzida tabassum paydo bo’ldi.

-Unda o’sha xojangni o’sha jaxannamda kut-dedi Keyt qilichida chaqmoq xosil qilib.Iblisning tanasi kuyib ketdi.Barchaning ko’zi ularda edi.

-Demak urush boshlandi-dedi Keyt qilichini sug’urib olib-Xuddi o’tgan safadagidek

2-fasl tugadi

Muallif:@Rameo_11